



MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASHNING XALQARO STANDARTLARI

Abdullayeva Madinabonu Xasanboyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-3116-3216

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy risklarni boshqarish va baholashning kompaniyalar istiqbolli prognozlarini ishlab chiqishdagi ahamiyati bayon etilgan. Xalqaro amaliyotda moliyaviy risklarni baholashning standartlari va ularning iqtisodiy mazmuni tadqiq qilingan. Moliyaviy risklarni boshqarishning muhim hususiyatlariga doir xulosalari yoritilgan. Risk menejmentini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: risk menejmenti, investitsion faoliyat, moliyaviy barqarorlik, kapital, moliya, samaradorlik, moliyaviy instrumentlar, korporativ moliya, baholash.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВЫХ РИСКОВ

Абдуллаева Мадинабону Хасанбоевна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье описывается актуальность управления и оценки финансовых рисков при разработке прогнозов компании. Изучены международные стандарты оценки финансовых рисков и их экономическое сущность. Сделаны выводы о важных особенностях управления финансовыми рисками. Разработаны научное предложение и практические рекомендации по совершенствованию управления рисками.

Ключевые слова: риск-менеджмент, инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, капитал, финансы, эффективность, финансовые инструменты, корпоративные финансы, оценка.

INTERNATIONAL STANDARDS FOR RISK MANAGEMENT

Abdullaeva Madinabonu Xasanboevna

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article describes the relevance of managing and assessing financial risks when developing company forecasts. International standards for assessing financial risks and their economic essence have been studied. Conclusions are drawn about the important features of financial risk management. A scientific proposal and practical recommendations for improving risk management have been developed.

Key words: risk management, investment activity, financial stability, capital, finance, efficiency, financial instruments, corporate finance, valuation.

Kirish.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish va takomillashtirishga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish, ularning infratuzilmasi, kapital bozorida ishtirokini yanada oshirish va boshqa moliyaviy-investitsion jihatlarini qamrab oluvchi mustahkam huquqiy asos yaratildi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida «mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarni va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiylashtirish hamda sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash» (Farmon, 2022) iqtisodiyot sohasidagi asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilab olingan. Shunga muvofiq, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga mos ravishda korporativ moliya siyosatini muvofiqlashtirish, moliyaviy menejmentning xalqaro zamonaviy uslubiyatini joriy etish, moliyaviy ta'minotning qo'shimcha manbalarini shakllantirishda moliya bozori bilan munosabatlarni rivojlantirish, moliyaviy risklarni boshqarishda xalqaro standartlarni joriy etish, kapital tuzilmasini optimallashtirishda moliyaviy texnologiyalarni tatbiq etishga doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirilishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini tashkil etishning muhim shartlaridan biri moliyaviy risklarni boshqarish borasida oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodiyotning real sektori aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni miqdoriy baholash, boshqarish tizimi hususan xalqaro standartlarni joriy etish va rivojlantirish amaliyoti muammoligicha qolmoqda. Iqtisodiyotning sektorlari bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlarini oladigan bo'lsak, moliya sektorida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida risklarni boshqarish masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Asosan tijorat banklari va sug'urta kompaniyalarida risklarni boshqarish bo'yicha alohida boshqarmalar tashkil etilgan bo'lib, tijorat banklarda ushbu amaliyot asosan kredit risklari bilan bog'liq muammolarni tahlil qiladigan bo'lsa sug'urta kompaniyalarida sug'urta hodisalari bilan bog'liq risklar baholanadi. Iqtisodiyot real sektorida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida esa moliyaviy risklarni boshqarish jarayonini tashkil etish masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi ushbu sohada yanada ko'proq ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy risklarni boshqarish va kompaniyalarda risk-menejmentini tashkil etishning ilmiy asoslari va amaliy muammolariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ilmiy ishlarda moliyaviy risklarni miqdoriy baholash va risk menejmentini tashkil etishga doir yondashuvlar, xulosalar bayon etilgan.

Risklarni boshqarish investitsiya qarorlaridagi noaniqlikni aniqlash, tahlil qilish va qabul qilish yoki ma'lum bir muammolarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Oddiy qilib aytganda, bu investitsiya bilan bog'liq moliyaviy risklarni kuzatish va ularga qarshi kurashish jarayonidir (Wang, Zhang and other, 2024). Moliyaviy risklarni boshqarish strategiyalari moliyaviy tavakkalchilikning turli shakllari bilan kurashish uchun mo'ljallangan harakatlar rejasi yoki siyosatidir. Strategiyalar har qanday firma yoki jismoniy shaxs uchun iqtisodiyot va moliya tizimida faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos moliyaviy risklarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega (Fan, Chen, and other, 2023).

Moliyaviy risklarni boshqarish bu moliyaviy risklarni aniqlash va profilaktikasi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni boshqarish funksiyasi hisoblanadi. Moliyaviy risklarni boshqarish ko'plab kompaniyalar uchun xavflarni boshqarishning ayniqsa "nozik" va muhim jihati hisoblanadi, chunki u kompaniya moliyasini himoya qilish va yo'qotishlarni oldini olish bilan bog'liq. Pul oqimi prognozi, diversifikatsiya va malakali moliyaviy boshqaruv - bularning barchasi samarali moliyaviy risklarni boshqarish strategiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy risklarni samarali boshqarish mavjud xarajatlarni tejashga, optimal qarorlar qabul qilishga va daromadni oshirishga olib keladi (Lancaster, Goff, 2023).

Professor Burxanovning (2019) fikriga ko'ra, moliyaviy barqarorlik foyda olish va qarzlarni to'lash, korxonada o'z faoliyatini moliyalash imkoniyati va resurslar aylanish tezligining bir maromda rivojlanib borishiga asoslangan korxonalar faoliyatining kompleks ko'rsatkichidir. Professor Xamdorovning (2021) ta'kidlashicha, kompaniyalarning moliyaviy barqarorlik monitoringi deyilganda moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlarni muntazam kuzatish, tahlil qilish va prognoz qilish, taktik va strategik qarorlarni qabul qilish, shu bilan birga qabul qilingan qarorlarni samaradorligini baholash tushuniladi.

Solodov (2017) risklarga doir quyidagi fikrlarni bayon qiladi. Tavakkalchilik – kompaniya moliyaviy qarorining aniq natijasini oldindan aytib bo'lmaydigan, lekin uni hal qilishning variantlarini ishlab chiqish imkonini beruvchi harakat yo'nalishi ma'lum bo'lgan vaziyat. Moliyaviy risklar - bu kompaniyaning mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishni, moliyaviy resurslari hajmi va tuzilishini hamda uning moliyaviy holatini ma'lum miqdorda o'zgartirishi mumkin bo'lgan holatlar (hodisalar). Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimidagi moliyaviy risklar ma'lum bir korxonada uchun mavjud bozor kon'yunkturasining xususiyatiga bog'liq bo'lgan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat. Barqaror raqobatdosh ustunliklar kompaniyaning bozorda o'rnini saqlab qolishini ta'minlaydi (Боровская, Шайхутдинова, 2019).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda "risk" iborasining yagona tarifini beruvchi talqin yo'q. Risk haqida so'z borganda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf yoki muqarrar bo'lgan omadsizlikni tushunish keng ommalashgan. Iqtisod nuqtai nazaridan qaralganda, risk – prognoz qilinayotgan variantlar bilan taqqoslanganda, kamomadlarning yuzaga kelishi yoki daromadga ega bo'lmaslik ehtimolini yuzaga kelishi demakdir.

Risk deganda, salbiy iqtisodiy oqibatlarga olib keluvchi sharoitlarning mavjudligi (ehtimoli) tushuniladi. Salbiy oqibatlarga manbaning bir qismini yo'qotish, daromadga ega bo'lmaslik, qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi, zarar ko'rmoq, sarmoyaviy loyihalarni yopish va hokazolar bo'lishi mumkin. Risk, tavakkalli vaziyatlarni yuzaga kelishiga, ya'ni maqsadga erishish bilan bir qatorda, unga erishishga monelik qiluvchi noaniq vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi voqealar (vaziyatlar) va sharoitlarning bir vaqtga to'g'ri kelishi bilan bevosita bog'liq. Noaniqlik bir xilda yakun topishi noma'lum bo'lgan vaziyatning yuzaga kelishi bilan shartlanadi, va shuning uchun u yoki bu vaziyatning paydo bo'lishning ehtimol darajasini miqdor va sifat jihatdan aniqlash imkoniyati mavjud bo'lsa, aynan shuning o'zi tavakkal qilish vaziyati bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy risklar o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib, samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadida aniq bir belgilari bo'yicha tasniflanishi lozim. Fikrimizcha, moliyaviy risklarni quyidagi asosiy belgilari bo'yicha turkumlash mumkin (1-rasm).

Noaniqlik elementlarining mavjudligi bir hilda yakun topadigan vaziyatlarni (yuzaga kelishiga qarorlarni qabul qilinishiga) sharoit yaratadi. Agar qaysidir bir variantni nafaqat miqdor va sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud bo'lsa, demak statistik jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik vaziyati to'g'risida xulosa qilsa bo'ladi va ular quyidagi shartlar bilan ta'riflanadi:

- noaniqliklarning mavjudligi, bu kelajakka nisbatan ishonchli va to'liq ma'lumotning yo'qligida namoyon bo'ladi;



1-rasm. Moliyaviy risklarni asosiy belgilari bo'yicha turkumlanishi¹

- yakunga oid bir necha muqobil variantlarning (kelajakda rivojlanish) mavjudligi;
- muqobil variantlarni amalga oshirish ehtimolini baholash;
- muqobil variantlardan birini tanlash zaruratining borligi (shu jumladan tanlashdan voz kechish imkoniyati ham);
- tavakkalchilik vaziyatini yuzaga kelishi bilan bog'liq moddiy, ma'naviy va boshqa zararlarning bo'lish ehtimolining mavjudligi.

Shuningdek, moliyaviy menejmentda moliyaviy risklarni boshqarishdagi asosiy e'tiborli jihatlardan biri ularni boshqarishning asosiy tamoyillarini shakllantirib olish hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda moliyaviy risklarni boshqarishga doir turli yondashuvlar va moliyaviy risklarni baholash bo'yicha ko'plab metodologiyalar mavjud. Ushbu metod va uslublardan foydalanishda kompaniyalar moliyaviy va investitsion faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda zamonaviy moliyaviy menejment instrumentlaridan foydalanish, kapital bozoridagi ishtirokining holati, modellardan foydalanishda kompaniya tomonidan foydalaniladigan ko'rsatkichlarning mavjud ekanligi yoki mos kelishi kabi jihatlarni inobatga olish kerak. Moliyaviy risklarni baholashda foydalaniladigan barcha yondashuvlarni uch guruhga ajratish mumkin: birinchisi risk ehtimolini baholash, ma'lum bir ssenariy bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni baholash va kombinatsiyalangan yondashuv, ya'ni yuzaga kelish ehtimolini ham yo'qotishlar miqdorini ham baholash.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, xalqaro amaliyotda risklarni baholashda kombinatsiyalangan yondashuvdan keng foydalanilmoqda, chunki ushbu yondashuv risk ehtimolligini baholash bilan birga ko'riladigan zararlarni (yo'qotishlar miqdorini) ham baholash imkonini beradi. Shuningdek, moliyaviy risklarni baholashda foydalaniladigan usullar va modellarni ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisi miqdoriy usullar bo'lib, o'z ichiga iqtisodiy-statistik modellarni, ikkinchisi esa sifat usullari bo'lib, o'z ichiga reyting tizimi, ballar yordamidagi va ekspert baholash usullarini kiritish mumkin.

¹ Muallif tomonidan tuzildi.

Moliyaviy risklarni boshqarishning xalqaro standartlari (Баранов, 2015)

Qisqartirilgan nomlanishi	Standartning nomlanishi	O'zbek tilidagi nomlanishi
ISO/IEC 31010:2009	Risk management - Risk assessment techniques	Risk-menejment – risklarni baholash usullari
ISO/IEC Guide 73	Risk Management – Vocabulary - Guidelines for use in standards	Risk-menejment – lug'at – standartlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar
ISO 31000:2009	Risk management - Principles and guidelines	Risk-menejment – tamoyillar - tavsiyalar
COSO II ERM - Integrated Framework	Enterprise Risk Management - Integrated Framework Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO), USA	Kompaniya risklarini boshqarishning integrallashgan modeli (2004), Tredvey komissiyasining homiy tashkilotlari qo'mitasi, AQSh
IRM, AIRMIC va ALARM (FERMA RMS)	Risk management standard, 2002 The Institute of Risk Management (IRM), The Association of Insurance and Risk Managers (AIRMIC) and ALARM The National Forum for Risk Management in the Public Sector, UK. Adopted by Federation of European Risk Management Associations	Risklarni boshqarish standarti (RMS) 2002, Risk-menejmenti instituti, Sug'urtalash va risk-menejmenti assotsiatsiyasi, Davlat sektorida risklarni boshqarish milliy forumi. Yevropa risk menejrlari uyushmalari Federatsiyasi tomonidan qabul qilingan.
BS 31100:2008 Britaniya standarti	Code of practice for risk management	Risklarni boshqarish bo'yicha amaliy Kodeksi
AS/NZS 4360:2004 Avstraliya standarti	Risk management	Risklarni boshqarish
HB 436:2004 Avstraliya yo'riqnomasi	Risk management Guidelines – Companion to AS/NZS 4360:2004	Risklarni boshqarish bo'yicha yo'riqnoma - AS/NZS 4360:2004 standartini qo'llash
CSA Q 850:1997 Kanada standarti	Risk Management Guidelines for Decision Makers	Qaror qabul qilish jarayonida risklarni boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar
JIS Q 2001:2001 Yaponiya standarti	Guidelines for development and implementation of risk management system	Risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga doir yo'riqnoma

Umuman olganda moliyaviy risklarni boshqarishga doir tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalari o'tgan asrning 90-yillaridan keyin rivojlanish boshladi. Aynan o'sha davrga kelib moliyaviy sektordagi yirik kompaniyalar moliyaviy risklarni boshqarishda alohida yutuqlarga erishish bilan birga, innovatsion boshqaruv usullarini amaliyotga joriy eta boshladi. Bunda, birinchi navbatda sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta hodisalari bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hatarlarni prognoz qilish va baholash, hususiy va davlat sektori o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni sug'urtalash orqali yo'qotilishi mumkin bo'lgan moliyaviy natijalarni baholash amaliyotini takomillashtirib borishi risk-menejmentini tor doiradagi ixtisoslikdan alohida funksional yo'nalishga aylanishiga olib keldi. O'z navbatida tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan yuqori riskli moliyaviy operatsiyalar ko'lamining ortib borishi moliyaviy risklarni boshqarishda yangicha yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishni taqozo etgan.

Yevropa ittifoqi davlatlari ekologik, texnologiya, ijtimoiy va boshqa shu kabi muammolarni hal qilish hamda mazkur yo'nalishga doir strategik qarorlar qabul qilishda risklarni boshqarish mexanizmini faol amaliyotga joriy eta boshladi.

Buning natijasida risk-menejmenti kompaniyalar menejmentining muhim sohalaridan biriga aylanib korporativ boshqaruvning barcha bosqichlarida alohida o'rin egallay boshlashi bilan birga ijro organi va boshqa darajadagi menejerlarning KPI darajasini baholovchi asosiy indikatorlaridan biri aylandi. 1990-yillarning boshiga kelib xalqaro amaliyotda risk-menejment sohasida iqtisodiyotning alohida va turli jabhalarni qamrab oluvchi standartlar amaliyotga tatbiq eta boshladi. Keyinchalik esa, buning ortidan alohida davlatlar o'zlari uchun risk-menejmenti standartini amaliyotga joriy etgan bo'lsa, iqtisodiyotning moliya sektori kompaniyalari standartda belgilangan asosiy qoida va taomillardan kelib chiqqan holda istiqbolli moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda keng foydalana boshladi (1-javdal). Xalqaro standartlar bosqichma-bosqich takomillashtirilib borilishi bilan birga, kompaniyalar uchun tarmoq hususiyatlarini hisobga olgan holda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan alohida me'yoriy talablar ishlab chiqilgan. Bular orasida sug'urta kompaniyalari va qayta sug'urtalash amaliyoti bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar uchun Solvency, SolvencyII va tijorat banklari uchun belgilanadigan Basel, Basel II, Basel III talablarni misol qilib keltirish mumkin.

1-jadvalda keltirilgan xalqaro standartlarda risklarni boshqarishda quyidagilarni unifikatsiyalashni nazarda tutadi:

- sohada foydalaniladigan terminologiyani;
- risklarni boshqarish jarayonining tarkibiy tuzilishi va o'zaro muvofiqligini;
- kompaniyalarda risklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqishga yondashuvlarni.

Tadqiqot natijalaridan ma'lumki, xalqaro standartda belgilangan tartib va qoidalarni mavjudligiga qaramay ayrim standartlarda farqlanishlar (terminologiya, risklarga ta'sir mexanizmi va sh.k.) mavjud.

Moliyaviy risklarni boshqarishga doir bo'linmalar tashkil etilgan jamiyatlarda ham asosan tashqi va ichki omillarning faoliyat samaradorligiga ta'siri va uning natijalariga e'tibor qaratiladi. Risklarning miqdoriy baholanishi va ularning tasniflanishiga doir ma'lumotlar keltirilmaydi. Bu esa foydalanuvchi va manfaatdor tomondan istiqboldagi risklarning darajasini aniqlashda muammolarni keltirib chiqarish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Fikrimizcha mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida risklarni boshqarishning xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etishda yuqorida keltirilgan unifikatsiyalash talablarini inobatga olgan holda quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish kerak:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'liq joriy etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash me'zonlarini ishlab chiqishda moliyaviy

risklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini mavjud ekanligiga doir alohida indikatorlarni kiritish;

- moliyaviy risklarni baholash va minimallashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish mazkur yo'nalishda fundamentlar grantlarni joriy etish;

- aksiyadorlik jamiyatlarida "uch himoya chizig'i", ya'ni tavakkalchiliklarni aniqlash va bartaraf qilish bo'yicha nazorat tartib-taomillarini amalga oshirishning yagona mexanizmini joriy etish orqali moliyaviy risklarni xedjirlash tartibini takomillashtirish. Mazkur jarayonda kuzatuv kengashi, ijro organi va audit subyektlari doirasida moliyaviy risklarni boshqarishga doir funksional vazifalarni proporsional ravishda taqsimlash va javobgarligi bo'yicha aniq chegaralarini belgilash;

- moliyaviy risklarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida tegishli infratuzilmani tashkil etish va viloyatlar kesimida teng taqsimlash;

- moliyaviy risklarni boshqarishga doir mutahassislarni ko'paytirish maqsadida mavjud kadrlarni xorijiy kompaniyalarda amaliyot tajribalarini tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish.

Bizningcha, risklarni boshqarishning xalqaro standartlari orasida milliy amaliyotda Yevropa risk menejerlari uyushmalari Federatsiyasi (FERMA) tomonidan qabul qilingan standartdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 2002 yilda ishlab chiqilgan "Risklarni boshqarish standarti" (RMS) deb nomlangan standart Yevropa Risk-menejmenti instituti, Sug'urtalash va risk-menejmenti assotsiatsiyasi, Davlat sektorida risklarni boshqarish milliy forumi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Boshqa standartlarda farqli ravishda, qo'llanilgan terminologiya nuqtai nazaridan, ushbu standart Xalqaro Standartlashtirish tashkiloti hujjatlarida qabul qilingan yondashuvga amal qiladi (ISO/IEC Guide 73 Risk Management - Vocabulary - Standartlarda foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar). Hususan, risk darajasi/risk standartga asosan "hodisa va uning oqibatlari ehtimolining kombinatsiyasi" sifatida aniqlanadi va belgilanadi. Shuningdek, FERMA standartiga muvofiq kompaniya risklari to'rtta guruhga ajratiladi, bular: strategik, operatsion, moliyaviy va kelgusidagi havflar. Ta'kidlash, risklarni bu kabi guruhlanishi moliyaviy risklarni boshqarishga doir strategik qarorlarni qabul qilishning vertikal ketma-ketligiga asoslanadi.

Adabiyotlar / Лумепамыпа/ Reference:

Aaron Lancaster, Sarah Goff (2023) *Financial Risk Management Fundamentals*// September 21, <https://www.auditboard.com/blog/financial-risk-management/#authors>

Burxonov A.U. (2019) *Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot Monografiya – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2019. 160 b.*

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni.*

Mu Fan, Xunan Chen, Bo Liu, Fei Zhou, Bo Gong, Rancheng Tao, (2023) *An analysis of financial risk assessment of globally listed football clubs*, *Heliyon*, Volume 9, Issue 12, 2023, e22886, ISSN 2405-8440 <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e22886>

Qi Wang, Lin Zhang, Qianqun Ma, Chong Wu, (2024) *The Impact of Financial Risk on Boilerplate of Key Audit Matters: Evidence from China*, *Research in International Business and Finance*, 102390, ISSN 0275-5319, <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2024.102390>.

Xamdorov O.N. (2021) *Moliyaviy barqarorlik strategiyasini shakllantirishning xalqaro amaliyot tajribalari*// "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali 2021 yil 5-son.

Баранов А. (2015) *Международные стандарты управления рисками: не базелем единым*// *Рынок ценных бумаг* № 5.

Боровская И.Л., Шайхутдинова А.К. (2019) *К вопросу об управлении финансовыми рисками. Вестник университета «Туран». (3): 86-91.*

Солодов А.К. (2017) *«Основы финансового риск-менеджмента»: учебник и учебное пособие*// – М.: Издание Кнорус, – 24,0 п.л.